

**FRANSUZ TILINI O’QITISHDA OG’ZAKILILIK VA DISKURSIV
YONDASHUVNING O’ZARO BOG’LIQLIGI**

Sharipova Gulshod Shavkat qizi,
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali stajyor-o’qituvchisi
sharipovagulshod123@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21212149>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fransuz tilini o’qitishda og’zakililik (*oralité*) tushunchasi va diskursiv yondashuvning o’zaro bog’liqligi tahlil qilinadi. Unda og’zakililikning faqat talaffuz, tinglash va gapirish faoliyati bilan cheklanmasligi, balki o’rganuvchining kommunikativ vaziyatdagi lingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik hamda noverbal faoliyatini ham qamrab oluvchi yaxlit metodik kategoriya ekani asoslanadi. Shuningdek, maqolada kommunikativ yondashuvdan diskursiv faoliyatga o’tish zarurati, rolli o’yinlarning metodik imkoniyatlari, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy maqom, institutsional va diskursiv rollar, madaniy kontekst hamda nutqiy strategiyalarni shakllantirish yo’llari yoritiladi. Og’zakililik va diskursiv kompetensiyaning o’zaro aloqasi asosida fransuz tilida talabalarning og’zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari taklif etiladi.

Kalit so’zlar: fransuz tili, og’zakililik, oralité, og’zaki nutq kompetensiyasi, diskursiv yondashuv, rolli o’yin, kommunikativ vaziyat, pragmatik kompetensiya, strategik kompetensiya, diskurs markerlari.

KIRISH

Zamonaviy xorijiy til ta’limida o’rganuvchining til birliklarini bilishi emas, balki ulardan turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq foydalana olishi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fransuz tilini o’qitishda og’zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish murakkab metodik jarayon bo’lib, u fonetik, leksik va grammatik bilimlar bilan bir qatorda pragmatik, diskursiv va ijtimoiy-madaniy ko’nikmalarni ham talab qiladi

Sophie Moirandning fikricha, fransuz tilini o’qitishda talabalarning og’zaki nutqini rivojlantirish faqat tayyor dialoglarni takrorlash yoki grammatik jihatdan to’g’ri gap tuzish bilan chegaralanmaydi.[1] Zamonaviy metodikada o’rganuvchi real kommunikativ vaziyatda fikr bildirish, suhbatni davom ettirish, munosabat bildirish, e’tiroz qilish va muammoni hal qilishga tayyor bo’lishi zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi fransuz tilida talabalarning og’zaki nutq kompetensiyasini diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va dars jarayonida qo’llash mumkin bo’lgan metodik modelni asoslashdan iborat.

OG’ZAKI NUTQDAN KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA O’TISH

XX asrning 60–70-yillarida tilshunoslikda strukturaviy yondashuvning mavqeyi asta-sekin pasayib, pragmatika, sotsiolingvistika va nutqiy faoliyat nazariyasi rivojlana boshladi. Natijada tilga faqat shakliy tizim sifatida qarash o’rnini tilning real kommunikativ vaziyatda qo’llanishini o’rganishga yo’naltirilgan funksional qarashlar egalladi. [2]. Ushbu metodologik o’zgarish xorijiy tillarni o’qitish jarayoniga ham ta’sir ko’rsatdi. Tilning grammatik tuzilishini o’zlashtirishdan ko’ra, o’rganuvchining mazkur tuzilmalardan

muloqot jarayonida foydalana olishi muhimroq ekanligi e’tirof etildi. Nutqning mazmuni va kommunikativ ta’siri u yuzaga kelgan vaziyat, suhbatdoshlarning maqsadi, munosabati va ijtimoiy mavqeyiga bog’liq deb qarala boshlandi.

Kommunikativ yondashuv doirasida til o’rganuvchi passiv tinglovchi yoki tayyor namunalarni takrorlovchi shaxs emas, balki kommunikativ faoliyatning bevosita ishtirokchisi sifatida namoyon bo’ladi. U muloqot maqsadini belgilaydi, til birliklarini tanlaydi, suhbatdoshining fikriga munosabat bildiradi va kommunikativ strategiyalarni qo’llaydi [3]

Biroq dastlabki kommunikativ mashqlar, xususan, tayyor dialoglarni yodlash va qayta ijro etish har doim ham haqiqiy muloqotni ta’minlay olmagan. Chunki bunday topshiriqlarda suhbat mazmuni, javoblarning ketma-ketligi va yakuni oldindan belgilangan bo’ladi. Talaba kutilmagan savol yoki kommunikativ muammoga duch kelmaydi. Natijada grammatik jihatdan to’g’ri, ammo mazmun va diskurs jihatidan cheklangan nutq yuzaga keladi. Shu sababli zamonaviy metodikada og’zaki nutq mashqlarini haqiqiy hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish, talabaning mustaqil fikrlashi va nutqiy strategiya tanlashiga imkon yaratish talab etiladi. Lhote uchun og’zaki nutqning markazida interaktsiya, ya’ni ikki tomonlama muloqot turadi. Haqiqiy og’zaki nutqda kishi shunchaki gapirmaydi, balki suhbatdoshga ta’sir qiladi, javob kutadi, munosabat bildiradi. Masalan, og’zaki nutq orqali inson: tushuntiradi, ishontiradi, rad etadi, savol beradi, rozilik bildiradi, suhbatni davom ettiradi, suhbatdoshni tinglaydi. Shu sababli chet tili darsida og’zaki nutqni rivojlantirish uchun dialog, munozara, rolli o’yin, intervyu, vaziyatli suhbat, muammoli topshiriqlar samarali hisoblanadi. [4] J. Dolz va B. Schneuwly asarida ham og’zaki nutqni o’qitish oddiy gapirtirish emas, balki formal og’zaki janrlar - debat, intervyu, og’zaki taqdimot kabi shakllar orqali bosqichma-bosqich o’rgatilishi kerakligi ko’rsatiladi. Bu fikr ham oralité va diskursiv yondashuv bog’liqligini kuchaytiradi, talaba real janrda, real vaziyatda, maqsadli muloqot orqali og’zaki kompetensiyani rivojlantiradi. [5]

Rolli o’yinlarning diskursiv imkoniyatlari.

Rolli o’yinlar fransuz tilida og’zaki nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Ular talabalarga til birliklarini kommunikativ vaziyatda qo’llash, suhbatdosh bilan munosabat o’rnatish, nutqiy strategiya va taktikalarni tanlash imkonini beradi.

Rolli o’yin samarali bo’lishi uchun faqat ishtirokchilar va suhbat mavzusini belgilash yetarli emas. Unda quyidagi komponentlar hisobga olinishi zarur:

1. Kommunikativ makon va vaqt. Muloqotning qayerda va qachon yuz berishi nutq shakliga ta’sir ko’rsatadi. Universitet auditoriyasi, kafe, do’kon, shifoxona yoki ishxona o’ziga xos nutqiy me’yorlarni talab qiladi.

2. Ishtirokchilarning ijtimoiy maqomi. Inson muayyan vaziyatda talaba, o’qituvchi, xaridor, shifokor, bemor, ota-ona yoki do’st maqomida ishtirok etishi mumkin. Maqom suhbatdoshlarning bir-biriga murojaat qilish shakli va nutq uslubini belgilaydi.

3. Institutsional rollar. Shifokor va bemor, o’qituvchi va talaba, sotuvchi va xaridor kabi nisbatan barqaror munosabatlar institutsional rollarni shakllantiradi.

4. Diskursiv rollar. Maslahat beruvchi, tanqid qiluvchi, yarashtiruvchi, ishontiruvchi, hazillashuvchi yoki norozilik bildiruvchi kabi rollar muayyan kommunikativ vaziyatda yuzaga keladi.

5. Kommunikativ maqsad. Talabaning vazifasi faqat gap tuzish emas, balki suhbatdoshini ishontirish, axborot olish, yordam so’rash, rad etish, muammoni hal qilish yoki murosaga kelishdan iborat bo’lishi kerak.

6. Madaniy kontekst. Fransuz tilidagi muloqotda salomlashish, minnatdorlik bildirish, uzr so’rash, suhbatni boshlash va yakunlash kabi nutqiy harakatlar muayyan madaniy me’yorlarga asoslanadi.

Shu komponentlar ishtirok etgan rolli o’yin oddiy dialogni takrorlashdan diskursiv faoliyatga aylanadi. Talaba nutqni tayyor shaklda qayta ishlab chiqmaydi, balki vaziyatga qarab uni mustaqil ravishda yaratadi.

Masalan, “Restoranda taom buyurtma qilish” mavzusida talabalarga faqat mijoz va ofitsiant rollarini berish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Mijoz buyurtma qilgan taomning mavjud emasligi, xizmatning kechikishi, hisobdagi xato yoki allergik mahsulot bilan bog’liq muammoli vaziyat yaratilsa, talabalar nutqiy strategiyalarni mustaqil tanlashga majbur bo’ladilar. Bu esa diskursiv, pragmatik va strategik kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

ORALITÉ VA DISKURSIV KOMPETENSIYANING O’ZARO ALOQASI

Diskursiv kompetensiya talabaning alohida grammatik jihatdan to’g’ri gaplarni tuzishi bilangina cheklanmaydi. U fikrlarni mantiqiy izchillikda birlashtirish, suhbat mavzusini davom ettirish, oldingi fikrga munosabat bildirish, mazmuniy yaxlitlikni ta’minlash va kommunikativ maqsadga erishish qobiliyatini anglatadi

Oralite va diskursiv kompetensiya o’rtasida bevosita aloqadorlik mavjud. Oralite nutqiy jarayonning barcha verbal va noverbal komponentlarini qamrab olsa, diskursiv kompetensiya mazkur komponentlarni izchil, mazmunan yaxlit va vaziyatga mos nutqqa birlashtirishni ta’minlaydi.

ORALITÉ ASOSIDA OG’ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH MODELİ

Fransuz tilida talabalarning og’zaki nutq kompetensiyasini oralite va diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Kommunikativ vaziyatni anglash bosqichi

Talabalar muloqotning joyi, vaqti, ishtirokchilari, ularning maqomi, munosabati va kommunikativ maqsadini aniqlaydilar. O’qituvchi videolavha, rasm, audioyozuv yoki muammoli savol orqali kommunikativ vaziyatni taqdim etadi.

2. Akustik va prosodik kuzatuv bosqichi

Talabalar autentik nutq namunasini tinglaydi, undagi ritm, intonatsiya, pauza, urg’u va hissiy ohangni aniqlaydi. Nutqning mazmuni bilan prosodik shakli o’rtasidagi bog’liqlik tahlil qilinadi.

3. Diskursiv vositalarni o’zlashtirish bosqichi

Talabalar suhbatni boshlash, fikrni davom ettirish, dalillash, e’tiroz bildirish, aniqlik kiritish va yakunlashga xizmat qiluvchi til birliklarini kommunikativ kontekstda o’rganadilar. Masalan, *alors, donc, en effet, pourtant, d’abord, ensuite, finalement, à mon avis, je ne suis pas tout à fait d’accord* kabi diskursiv birliklar talabaning fikrini izchil va mantiqiy shakllantirishga yordam beradi. Biroq ularni alohida yodlatish yetarli emas. Mazkur birliklar munozara, muammoli suhbat, intervyu, loyiha taqdimoti yoki rolli o’yin jarayonida amaliy qo’llanishi kerak

4. Boshqariladigan nutqiy faoliyat bosqichi

O’qituvchi tomonidan belgilangan kommunikativ vaziyat va tayanch vositalar asosida juftlik yoki kichik guruhlarda dialoglar yaratiladi. Bunda talabalarga tayyor matn emas, balki rol, maqsad va muammo beriladi.

5. Muammoli kommunikativ vaziyat bosqichi

Talabalar oldindan to’liq rejalashtirilmagan vaziyatda muloqot qiladilar. Suhbat davomida yangi muammo, qarama-qarshi fikr yoki kutilmagan axborot kiritiladi. Bu talabalarning strategik va pragmatik kompetensiyalarini faollashtiradi.

6. Refleksiya va baholash bosqichi

Talabalar o’z nutqiy faoliyatlarini tahlil qiladilar. Baholashda faqat grammatik to’g’rilik emas, balki diskursning izchilligi, kommunikativ maqsadga erishish, vaziyatga moslik, ritm, intonatsiya, madaniy muvofiqlik va suhbatdosh bilan hamkorlik ham hisobga olinadi

Mazkur modelda o’qituvchi bilim beruvchi markaziy shaxsdan kommunikativ faoliyatni tashkil etuvchi, kuzatuvchi va metodik yo’naltiruvchi subyektga aylanadi.[6]

XULOSA

Fransuz tilida og’zaki nutq kompetensiyasini diskursiv yondashuv asosida rivojlantirish talabani faqat grammatik jihatdan to’g’ri gap tuzishiga emas, balki real muloqot sharoitida mazmunan izchil, vaziyatga mos va maqsadga yo’naltirilgan nutq yaratishiga xizmat qiladi.

Rolli o’yinlar, muammoli kommunikativ vaziyatlar, munozara, intervyu, loyiha taqdimoti va diskursiv topshiriqlar talabalarda suhbatni boshlash, davom ettirish, e’tiroz bildirish, dalillash, aniqlik kiritish va muloqotni yakunlash kabi ko’nikmalarni shakllantiradi.

Fransuz tili mashg’ulotlarida autentik materiallar, muammoli kommunikativ vaziyatlar, rolli o’yinlar, drammatizatsiya, munozara va diskursiv topshiriqlardan foydalanish talabalarning nafaqat lingvistik, balki pragmatik, strategik, ijtimoiy-madaniy va diskursiv kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moirand, S. Enseigner à communiquer en langue étrangère. Paris: Hachette.
2. Billières, M. Oral et oralité // Oral et Communication: podcast, épisode 4. – Au son du FLE, 2019. – 8 p.
3. Hymes, D. On Communicative Competence Sociolinguistics, 1972, Harmondsworth: Penguin Books.
4. Lhote É. Pour une didactologie de l’oralité // Éla. Études de linguistique appliquée, 2001, № 123–124, P. 445–453. DOI: 10.3917/ela.123.0445
5. Dolz, J., Schneuwly, B. Pour un enseignement de l’oral: initiation aux genres formels à l’école. Paris: ESF, 6e édition 2016
6. Conseil de l’Europe. Cadre européen commun de référence pour les langues: apprendre, enseigner, évaluer, Paris: Didier, 2017